

**TOG‘ JAMBILINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI****A.X.Mammadiyev**

DTPI o‘qituvchisi

**Omonov Elbek**

Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11527630>

**Annotatsiya.** Keyingi yillarda ko‘pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham farmasevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi kuzatilmoqda, shu sababli ham farmasevtika korxonalarining dorivor o‘simliklar xom-ashyosiga bo‘lgan talabni keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada Tog‘ jambili (*Thymus vulgaris* L) ning dorivorlik xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xalq tabobati, farmasevtika, *Thymus vulgaris*, Lamiaceae, O‘rta yer dengizi, flavonoidlar, kumarinlar.

**THE MEDICAL PROPERTIES OF MOUNTAIN JAMBILI**

**Abstract.** In recent years, the rapid development of the pharmaceutical industry has been observed in many countries, including the Republic of Uzbekistan, which is the reason for the sharp increase in the demand of pharmaceutical enterprises for raw materials of medicinal plants. This article provides information on the medicinal properties of *Thymus vulgaris* L.

**Key words:** Folk medicine, pharmaceuticals, *Thymus vulgaris*, Lamiaceae, Mediterranean Sea, flavonoids, coumarins.

**ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА ГОР ЖАМБИЛИ**

**Аннотация.** В последние годы во многих странах, в том числе и в Республике Узбекистан, наблюдается бурное развитие фармацевтической промышленности, в связи с чем фармацевтические предприятия вызывают резкий рост спроса на сырье лекарственных растений. В данной статье представлена информация о лечебных свойствах тимуса обыкновенного L.

**Ключевые слова:** Народная медицина, фармацевтика, Тимус обыкновенный, Lamiaceae, Средиземное море, флавоноиды, кумарины.

**Kirish.** Shifobaxsh o‘simliklar insoniyatga juda qadim zamonlardayoq ma’lum bo‘lgan. O‘tgan asrlardan bizga shifobaxsh o‘simliklarni ta’rifi va ularni inson salomatligini yaxshilashda qo‘llanilishiga doir ko‘pgina ilmiy asarlar yetib kelgan. Ma’lumki, dunyo miqyosida farmasevtika

korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% dorivor o‘simliklar xom-ashyosidan tayyorlanmoqda.

Xalq tabobatida Tog‘ jambili (*Thymus vulgaris* L)dan tayyorlangan qaynatma bilan stamatit, nafas yo‘llari kasalliklari davolanadi [1]. Tog‘ jambili(*Thymus vulgaris* L) -Lamiaceae oilasiga mansub bo‘lib, bo‘yi 30—60 sm ga yetadigan ko‘p yillik o‘t o‘simlik hisoblanadi. O‘simlik tarkibida 7,6—7,8 mg % karotin [karotinoidlarning umumiy miqdori yer ustki qismida 3% ga yetadi], 0,62—0,4% efir moyi, 0,33—0,88% flavonoidlar [kversetin, izoramnetin, izokversetin va boshqalar], kumarinlar [eskuletin, skopoletin, umbelliferon], 3,44% smolalar, 4% gacha shilliq, 10,4—11,2% oshlovchi moddalar, 19% gacha achchiq modda kalenden, 6,84% olma, pentadesid va oz miqdorda salitsilat kislotalar, triterpen diollar mavjud.

Tog‘ jambili (*Thymus vulgaris* L) Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, poyasi yog‘ochlashgan, tik o‘sovchi 40-50 sm gacha yetadi, yuqori qismi shoxlangan, jingalak tukchalar bilan qoplangan. Ildizlari o‘q ilqizli, keng shoxlangan. Barglari mayda, uzun lansetsimon yoki cho‘ziq teskari tuximsimon, uch tomoni o‘tkir, tulangan. Gullari mayda, oq qizg‘ish rangda, novdachalar va poyalarda to‘pgul bo‘lib joylashgan[2]. Urug‘i uzunchoq yumaloq, ellipssimon, to‘q qo‘ng‘ir rangli yong‘oqcha bo‘lib, uzunligi 0,6mm. va deametri 0,2mm.atrofida qayd etiladi. U iyun-iyul oylarida gullaydi, urug‘i avgust-sentabr oylarida to‘liq pishib yetiladi. O‘simlik vatani- O‘rta yer dengizi mamlakatlari, Yevropa qit‘asining janubiy qismida keng tarqalgan. Mahaliy xalqda tog‘ jambilining xushbo‘y ziravor va dorivor xususiyatlari azaldan ma‘lum bo‘lib, bu haqda Ibn Sino asarlarida xam ma‘lumotlar keltirilgan. Uning yer ustki qismlarini turli kasalliklarni, ayniqsa nafas yo‘llari kasalliklarini davolashda asosiy vosita sifatida foydalanib kelingan. Tog‘ jambili o‘simligi generativ (urug‘idan) va vegetativ ( qalamcha va tuplarini bo‘lish) usullari orqali ko‘paytiriladi.





### Tog' jambili

Tog' jambil o'simligi urug'lari uch qirrali-tuxumsimon yong'oqchadan iborat. Uzunligi 2–3 mm bo'lib, yong'oqchalarining usti notekis uch kirrali, rangi tuq jigarrangda yoki qo'ng'ir qora rangda bo'lib, 1000 dona urug' og'irligi 0.6-0.9gr.ni tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, tog' jambil o'simligi urug' unuvchanligi uzoq muddat saqlash xususiyatiga egadir. Xususan, 1-2 yil mobaynida to'g'ri saqlangan urug'larning unuvchanligi bizning tajribalarimizda 70-80% unuvchanlikka ega bo'lishi aniqlandi. Shunday qilib, o'simliklarni urug'idan ekib o'stirish va ko'paytirish imkoniyatlari mavjud. O'simlik urug'lari avgust – sentabr oylarida to'liq pishib yetiladi. O'simlik urug'larini pishgan mevalardan birinchi yili ekish samarali natija beradi. Respublikamizda oziq-ovqat va farmasevtika sanoati ehtiyojlarini mazkur o'simlik hom-ashyosi bilan qondirishning imkoniyatlari mavjud.

### REFERENCES

1. Тошматова З. Биоэкологические особенности *Thymus officinalis* L. в Ботаническом саду АН Уз ССР. // Интродукция и акклиматизация растений. Ташкент. Фан.1978. 34-36 стр.
2. Турова А. Сапожникова Э. Лекарственные растения и их применение, М., 1982,39-40 С.
3. М.А.Халмуратов.,D.Sodiqova.,M.Hamroyeva va boshqalar. Botanika tadqiqot usullari.O'quv qo'llanma.Toshkent-2023.-45b.
4. D.G'.Sodiqova., D.A.Jumayeva. Manzarali o'simliklar. Toshkent.-2023.-64b.